

YETUKLIK DAVRIDA HAYOTDAN QONIQQANLIKNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Mo‘minov Boxodirjon Solijon o‘g‘li
O'zMU 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yetuklik davrida hayotdan qoniqqanlikning ijtimoiy psixologik omillari taxlil qilindi. Shu bilan bir qatorda yetuklik davrining inqirozlari, yetuklik davri ustida qaysi psixologlar tadqiqot olib borganligi va ularning xulosalari, bu davrning bosqichlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Yetuklik, yetuklik davrining bosqichlari, o‘rta yetuklik, ilk yetuklik qonuniyatlar, yetuklik davrining inqirozlari.

Аннотация: В статье анализируются социальные и психологические факторы удовлетворенности жизнью в зрелом возрасте. В то же время описываются кризисы взрослой жизни, которые психологи исследовали в отношении взрослости и их выводы, а также этапы этого периода.

Ключевые слова: Зрелость, стадии зрелости, средняя зрелость, модели ранней зрелости, кризисы зрелости.

Abstract: This article analyzes the socio-psychological factors of life satisfaction in adulthood. It also describes the crises of adulthood, which psychologists have conducted research on adulthood and their conclusions, and the stages of this period.

Keywords: Maturity, stages of adulthood, middle adulthood, early adulthood patterns, crises of adulthood.

KIRISH

Yetuklik davri ancha murakkab davrdir, mazkur davrda shaxs ham jismoniy va ijtimoiy jihatdan yetuklikka yetgan, jamiyat fuqarosi hamda saylash huquqiga ega bo‘lgan bo‘ladi. Bularning barchasi ijtimoiy jihatdan voyaga yetgan, turmushda o‘z o‘rnini topgan, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, yetuk shaxs sifatida ruhiyati va ma‘naviyatining rivoji uchun jamiyki shart-sharoitlarni yaratadi. Yetuklik ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan davrlardan biridir.

MUHOKAMA

Odatda yetuklikning uch bosqichi ajratiladi:

-ilk yetuklik (yoshlik);

-o‘rta yetuklik;

-yetuklik (qarilik va keksayish).

Yetuklik davrida odam o‘zining kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o‘z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga jamoa ishlariga to‘la safarbar etiladi

. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari yetaklaydi. Yetuklik – hayot faoliyatining eng ijtimoiy faol va mahsuldor davridir, u kattalikning shunday davriki unda shaxs va intellekt rivojlanishning eng yuksak darajasiga erishiladi. Qadimgi greklar bu yoshni va ruh holatini “akme” deb atashgan, “cho’qqi”, “oliy bosqich” va “gullagan davr” degan ma’noni anglatadi. Yetuklik davrida shaxsning rivojlanishi psixologiyadagi kam o’rganilgan muammolardan biridir. Masalan, psixanalitik nazariyalar shaxs anomaliyalariga patologik variantlarga e’tibor qaratiladi. Norma kasallik belgilarining yo’qligi sifatida qaraladi. Boshqa yo’nalish, gumanistik psixologiya vakillari o’zligini namoyon qilgan mashhur shaxslarni absolyutlashtiradi. A.Bodalivning ta’kidlashicha, yetuk inson rivojlanishidagi cho’qqi, yetuklik cho’qqisi sifatida akme fenomeni – ko’p o’lchamli holat bo’lib, variativ va o’zgaruvchandir turli yosh davrlarida cho’qqilarida turlicha erishiladi. Inson hayot yo’lini kuzatish choqqiga erishishda har bir yosh davrining go’daklik, ilk bolalik, maktab yoshidagi davri va boshqalar. Inson bolg’usi makroakmesining namoyon bo’lish shakillari va mazmuniga tayyorlanishda katta ahamiyatga ega. Fan va madaniyatda buyuk iz qoldirgan mashhur insonlarning hayotini o’rganish hayotining har bir bosqichida mikroakmelar namoyon bo’lganligini kuzatish mumkin. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko’proq o’rin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir, lekin odamlarning o’ziga xos xususiyatlariga ko’ra chegara turlicha bo’ladi. Masalan, bu bir kishida 60 yoshda boshqalarida 70 yoshda bo’lishi mumkin. Shu bois, yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga tarixiy – ijtimoiy shart – sharoitiga va boshqalariga ham bog’liqdir. Yetuklik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur’at bilan ro’yobga chiqarishdir. Ma’lumki ijtimoiy yetuklik shaxsdan zarur aqliy obilyatini hamda ijtimoiy tuzishda bajariladiga turli rollarni egallash (oila qurish) farzandlarini tarbiyalashga mehnat qatnashishga tayyorlanishini talab etadi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko’rsatkichlari o’rta ma’lumotlilik ko’rsatish qonuni oldida javobgarlik unga intilish tuyg’usi, irodaviy zo’r berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi vazifasini o’tash, ijtimoiy guruhga raxbarlik qilish, sport bilan shug’ulanish bo’sh vaqtini tashkil etish va boshqalardan iborat. Dastlabki inqiroz ilk yetuklikka o’tishda, 20-22 yoshda namoyon bo’lib ota-ona ildizlaridan bo’linish inqiroz deb ataladi. Yoshlikning asosiy vazifalari va muammolari: hayotiy rejalarni aniqlashtirish va ularni amalga oshirishga kirishish, o’zligini topish induallikni ishlab chiqish, o’zining huquq va majburiyatlarini bilgan yetuk inson deb anglash, turmush o’rtoq tanlash va o’z oilasini qurish, kasbiy faoliyatda iqtisoslashish va mahoratni egallashdir. Eriksonning ta’kidlashicha, o’rta yetuklik davrida avlodlarni saqlash hissi kuchayadi, kelgusi avlod va uning tarbiyasiga qiziqish ortadi. Hayotning bu davri turli sohalarda yaratuvchanlik va mahsuldorlik bilan ajralib turadi. Inson inqirozli kechinmalarni muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun

oʻzida emotsional egiluvchanlikni, oʻsayotgan bolalar va keksayotgan ota-onalarga hissiy barqarorlikni rivojlantirish zarur va yetarlidir. Oʻrta yosh inqirozini hal qilish-hayotiy maqsadlarni qayta koʻrib chiqish, insonga berilgan umrning qisqaligini anglash, hayot sharoitlarini tuzatish, yangi Men obrazini ishlab chiqish, turmush oʻrtogʻiga, doʻstlariga, farzandlariga koʻproq eʼtibor qaratish, yangi holatini toʻgʻri idrok etish yangi barqaror davrga olib keladi. Inqirozlarni muvaffaqiyatli bartaraf etgan insonlarda 50-60 yoshdan keyin kundalik muammolarga olib keladi. Psixik funksiyalar rivojlanish mexanizmlaridan quyidagi xususiyatlar aniqlanadi: oʻrtoq, doʻst sifatida shakllanish sharoitlari, yoʻllari va usullarini oʻrganadi.

XULOSA

Yetuk insonlar intellektual potentsiallini optimallashtirishning muhim omillari quyidagilar: maʼlumki maʼlumot darajasi (oliy, texnik, oʻrta maxsus va boshqalar), taʼlim- individual va tashkiliy bilish jarayoni sifatida, kasbiy faoliyat turi, mehnat faoliyati xarakteri va boshqalar. Yetuk insonlar intellekt saqlanishi bilan bir qatorda uning strukturasida sifat jihatidan qayta oʻzgarishlar sodir boʻladi. Uzoq muddatli xotirada verbal esa tushurish keksalik davrigacha oʻzgarmaydi, reaksiya tezligi, qisqa muddatli xotira, qayta esga tushurish bir muncha susayadi. Shunga qaramay kasbiy xotiraning takomillashishi minimik funksiyalarning umumiy susayishi bilan mos kelmasligi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X. Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya" Toshkent-2018
2. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.
3. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi–jamiyat faravonligi asosi. *Finland academic research science publisher*, 1148-1151.
4. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(3), 156-161.
5. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 35-37.
6. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 74-76.
7. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1399-1403.
8. Норбошева, М. А. (2023). КЛАССИФИКАЦИЯ МОТИВОВ УЧЕНИЯ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 255-258.